

## Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2024-yilning II- choragida amalga oshirilgan ishlar

Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishini boshqarma boshlig‘I Sh. Mamadaliyev ochib berdi va yig‘ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o‘tdi. Shuningdek, Statistika dasturi doirasida boshqarma va uning hududiy statistika organlari tomonidan 2024-yilning II choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma‘lumotlarni keltirib o‘tdi. Jumladan, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida Farg‘ona viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot hajmi joriy narxlarda 34 094,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 6,2 %ga o‘tdi. YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 110,6 %ni tashkil qildi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Farg‘ona viloyatining qo‘shgan hissasi 6,0 %ga yetdi.

Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 19 080,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 108,7 % ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 18 095,3 mlrd. so‘mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 104,9 %ni miqdorida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida, Farg‘ona viloyati jami 5 160,6 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,9 %ni tashkil etdi. Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) 62 803 tani tashkil etib, ulardan 38 030 tasi yoki 60,5 % i faoliyat ko‘rsatmoqda. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 3 341 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi,

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 14,8 trln. so‘mni, 2023-yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 111,8 % ni tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasi 12,6 trln so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 107,5 % ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2024-yilning yanvar-iyun oylarida 885,5 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport – 371,0 mln. AQSH dollari va import – 514,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, Farg‘ona viloyatining doimiy aholi soni 4098,7 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 37,2 ming kishiga yoki 0,9%ga ko‘paydi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida 10 575,4 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, ularning 72,0 %i yoki 7616,3 mlrd. so‘mi jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 28,0 % yoki 2959,1 mlrd. so‘m moliyalashtirildi.